



TIL TA'LIMINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH - DAVR TALABI

Imamova Gulxasem Turg'anbay qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich fakultet talabasi

***Annotatsiya:** Ta'lim jarayoni deyilganda, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko'z oldimizga keladi. Endilikda ushbu jarayon multimediali o'quv-metodik majmualar, multimediali darsliklar, video va audio kassetalar, kompyuter dasturlari onlayn o'qitish tizimlari bilan uyg'unlashib bormoqda.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, video, audio, texnologiya, metod.*

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'z taraqqiyotlarini intellektual boylikni kuchaytirish masalasi bilan uzviy bog'laydilar. Bu bejiz emas. Ayniqsa, globallashuv davrida ta'lim-tarbiya, fan butun jahon ahlining diqqat-e'tiboridadir. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifati davlatning ijtimoiy talabi deb qaralmoqda. Fan va texnologiyaning taraqqiyoti ta'lim-tarbiya tizimiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazayotganligi hammamizga ayon. Bu holat sohada olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga olib kelmoqda.

O'qitish mazmuni, metodlari, vositalarining yangilanishi til ta'limida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu butun jahonda kuzatilmoqda.

Ayniqsa, o'quvchilarning axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishining ortib ketishi o'qitish jarayonida tub burilish yasash lozimligini ko'rsatib turibdi. Ilg'or o'qituvchilar tajribasida axborot olamida yashayotgan o'quvchilarning ana shu xususiyatlarni ularning til ta'limiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish omili, vositasi sifatida foydalanilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llanilishi mavjud bo'lgan ko'pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois, ta'lim va o'qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e'tibor bilan qarala boshlandi. Ta'lim jarayoni deyilganda, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko'z oldimizga keladi. Endilikda ushbu jarayon multimediali o'quv-metodik majmualar, multimediali darsliklar, video va audio kassetalar, kompyuter dasturlari onlayn o'qitish tizimlari bilan uyg'unlashib bormoqda.

Byki bu jahon miqyosida til o'rganish tizimlaridan biri nomi, qaysiki desktop dastur bilan ta'minlash onlayn arizalar, bepul mundarija, maqolalar va o'yinlarni o'z



ichiga oluvchi sayt hisoblanadi. Bu saytga kirish uchun **Byki.com** tomonidan ruxsat berilgan.

“Byki” tizimida jahondagi 74 ta turli tillarni o‘rganish mumkin.

Bepul Byki Express desktop dasturi orqali Osiyoning bir qator tillarni jumladan, koreys, yapon, xitoy tillarini o‘rganish imkoni mavjud. Byki Express dasturi bepul hisoblanadi. Byki Deluxe versiyasiga qo‘shimcha haq to‘lash orqali til o‘rganish, mundarija, tilga doir topshiriqlarni bajarish mumkin. Bu saytda talabalar lug‘atlar bilan tanishishlari va ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin. Byki tizimi tomonidan tayyorlangan dastur bo‘yicha foydalanuvchilar dastlab tanlagan tilning grammatikasini o‘zlashtirishlari kerak. Katta yoshli o‘rganuvchilar chet tillarini, so‘z va frazalarni o‘z xotirasiga xuddi savatga kerakli narsalarni yig‘gandek bo‘ladilar. Yetakchi tilni o‘rganish tadqiqotlar, ya’ni pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Til ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning jahon miqyosidagi tajribalarini CALL (computer Assisted Language Learning) va “Byki” tizimlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Byki” tizimi til o‘rganish tizimi hisoblanadi. “Byki” til o‘rganish tizimi lug‘at boyligimizni boyitishga xizmat qiladigan vositalardan biri.

Bu tizimda 2 ta dastur bilan tanishish mumkin.

1. Byki ekspress
2. Byki deluxe

Byki Ekspress to‘lovsiz dastur. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonini tezlashtiradigan eng yaxshi dastur sanaladi. Audio mp3, til ta’limiga taalluqli o‘yinlar orqali, o‘rganilayotgan til talaffuzini puxta o‘zlashtirishga qaratilgan. Bu dastur o‘rganuvchini Byki Deluxe dasturiga o‘tishga tayyorlaydi.

Ona tili ta’limi dunyoning burchaklarida barcha zamonlarda insonni komillikka yetkazishdagi favqulodda muhim jarayonlardan biri sifatida qaralgan. Bashariyat tarixida maktab degan muhtasham muassasaning ibtidosi hisoblanmish qadimgi shumer maktablarida, ya’ni eramizdan oldingi uch ming yilliklarning boshida ilk ta’limning ikki ustunidan biri ona tili darslari bo‘lganligi turli manbalarda qayd etilgan. Demakki, qadimda besh ming yildan beri ona tili muayyan bir tizimga solingan darslar o‘laroq o‘qitib kelinadi. Aytish mumkinki, shuncha vaqtdan beri inson aqli odam bolasiga o‘z ona tilisini o‘rgatish va bu o‘rgatishning eng qulay va samarali usullarini izlashdan to‘xtamaydi. Tamaddunning tinimsiz taraqqiyoti,



tadrijiy takomili natijasida yuzaga kelgan yangidan-yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'qitish samaradorligini yanada oshirish uchun ham katta-katta imkoniyatlarni ochadi. Tabiiy ravishda eng maqbul o'qitish usuli sifatida turg'unlashgan muayyan qoidalar eskiradi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqqan holda yanada yangi o'qitish usullari izlanadi. Bir so'z bilan aytganda ona tili ta'limi zamon taqozosiga muvofiq ana shunday muttasil, muntazam rivojlanib, takomillashib, maqbullashib boradigan jarayondir.

Bugun dunyoda axborot kommunikatsiya texnologiyalari kirib bormagan soha yo'q. Shu jumladan ta'lim sohasida ham bu jarayonni kuzatish mumkin.

Misol uchun ona tili ta'limida keys texnologiyasidan foydalanishni olib qaraydigan bo'lsak, keys texnologiyasi ona tili ta'limida samarali natijalar bermoqda.

Mazkur texnologiyada mavzuni qaysi yo'nalishdagi ta'lim sohasi bog'lab, olib borish, darsda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo, amalga oshiriladigan vazifalar, fikrlar xilma-xilligi asosida chiqariladigan xulosa oldindan aniqlab olinadi. Darsning rejasi, maqsadi, o'qitish usul va faoliyati belgilanadi. O'quv topshiriqlari ishlab chiqiladi. O'quvchilar o'quv adabiyotlari va tahlil uchun kerakli matnlar bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari jahon mamlakatlarida **global smilesn dasturi** ham ishlab chiqilgan.

Bu dasturda til ta'limida darslarni tashkil qilishda darsning har bir bosqichi uchun taqozo qilinadigan komputer dasturlari taklif qilingan:

- 1) yangi mavzuni bayon qilishda bilimlarni vizuallashtirish orqali taqdim qilish, namoyish qiluvchi ensiklopedik dasturlar va pover point taqdimot dasturi;
- 2) o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda o'rgatuvchi dasturlar;
- 3) o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholashda nazorat qiluvchi dasturlar;
- 4) o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil qilishda "repetitor" o'rgatuvchi dasturlaridan foydalanishning afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Rossiyalik rus tili va adabiyoti o'qituvchilari komputerlar bilan jihozlangan rus tili kabinetlarida darslarni tashkil etish o'quvchilarning motivatsiyalarini yuzaga keltirishini, ularda bilim olishga ehtiyoj paydo qilishini, ichki motivatsiyadan fanni o'rganisga qiziqish kelib chiqishini alohida ta'kidlaydilar. Biroq axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishni tizimli olib borish zarur, vaqti-vaqti bilan rejalashtirmasdan yo'lga qo'yish samara bermaydi. Shu bilan birga an'anaviy metod



va usullarni to'liq axborot texnologiyalariga almashtirish ham mumkin emas,-deb hisoblaydilar.

<https://intolimp.org> va <https://videouroki.net> saytlarida videodarslarga alohida e'tibor qaratilgan.

Videodarslar o'qitishning zamonaviy ko'rgazmali instrumenti ekanligiga urg'u berilib, boshlang'ich va yuqori sinflar uchun rus tilidan videodarslar va mashq qildirgichlar komplekti yaratilib, fan o'qituvchilari va ota-onalarning yuklab olishlari uchun havolalar berilgan.

Bu komplekslarda:

1. O'quv materiali o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib taqdim qilingan.
2. O'quvchilarni zavqlantiradigan rasmlar bilan bezatilgan.
3. Qiziqarli she'rlar va hikoyalar o'rin olgan.

Ma'lumki, yangi mavzu bayonida sinf doskasida yozib tushuntirish imkoni bo'lmaydigan jihatlar bor. Sanab o'tilgan komplekslar bilan dars o'tish ana shu imkoniyatni yaratadi. Mavzuni tushuntirish davomida fan o'qituvchilari ko'p kuch sarflamaydilar va asablarini charchatmaydilar. Mabodo fan o'qituvchisi biron uzrli sabab bilan o'z darsiga kela olmaganda, boshqa o'qituvchi yuqorida sanalgan komplekslardan foydalanib, o'quvchilarni boshqarib tura oladi.

Komputer texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi sifatida quyidagilarni alohida sanash mumkin:

1. Komputer dasturlari dars mobaynida o'qituvchiga muhim yordamchi bo'lishi mumkin, shuningdek, ularni uy sharoitida qo'llash imkoniyati mavjud.
2. Komputer dasturlaridan o'rin olgan topshiriqlarni mashq qildirgich sifatida ham, nazorat qiluvchi sifatida ham foydalanish imkoni mavjud.
3. Til bo'limlarini takrorlash va o'quvchilarning o'zlashtirishidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatiga egalik.
4. O'quvchilar xohlagan vaqtda nazariy ma'lumotlarniesga olishlari yoki notanish atamalarni o'rganishlari uchun "Spravochnik" (Ma'lumotnoma) tizimidan foydalanishlari mumkin.
5. Komputer dasturlari mavzuga mos, til hodisalari ko'rgazmali, taqdim qilingan namunalar, misollar bilan tanishishlari mumkin.



Uzluksiz ta'lim tizimida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahon mamlakatlari ta'lim tizimida masofaviy ta'lim metodlari, ya'ni onlayn o'qitish tizimlari ishlab chiqilmoqda va amalga tadbiiq etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nafisa, R. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF MODERN MANAGEMENT TRAINING. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 265-269.
2. Raxmonqulova, N. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 371-375.
3. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 111-115.
4. Raxmonqulova, N. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 340-347.
5. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business Activities. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 19-22.
6. Raxmonqulova, N. O. (2022). THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON RESOURCE CONSUMPTION. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 476-480).
7. Bakhriddinova, A. N., & Kizi, R. N. O. (2021). The impact of the digital economy on resource consumption.
8. Azatovna, N. F. (2023). THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGY LESSONS. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(27), 129-132.
9. Azatovna, N. F. (2023). Development of Technical Creativity In Robotics Classes. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1(1), 11-13.
10. Azatovna, N. F. (2023). Robotics in Their Classes Technical Creativity in Development Used Methods Technology. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(5), 81-84.
11. Avezov, B. (2021). Use Of Elements Of Drawing In Teaching Technology At School. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(11), 6349-6352.
12. Pirniyazova, M. (2023, October). METHODOLOGICAL ESSENCE OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'ENTREPRENEURSHIP COMPETENCIES



BASED ON VITAGEN EXPERIENCE. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 38-40).

13. Anarkulova, G. M., Mukhamedsaidov, B. K., & Pirniyazova, M. K. (2023). Modern Methods of Assessing Knowledge, Skills and Abilities of Students as a Means of Stimulating Learning. *Telematique*, 22(01), 2617-2624.
14. Kenesbayevna, P. M. (2023). TALABALARDA TADBIRKORLIK KOMPYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI: Pirniyazova Malika Kenesbayevna, Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 157-161.

